



## **“XIZMATNI ZAXIRALASH” VA “XIZMATNI IXTIYORIY BLOKIROVKA QILISH” QO‘SHIMCHA XIZMATLARINI TAQDIM ETISH TARTIBI.**

### **5.1. Umumiy qoidalar**

5.1.1. Zarur hollarda, Abonent “Xizmatni zaxiralash” va “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” qo‘shimcha xizmatlaridan (keyingi o‘rinlarda - Qo‘shimcha xizmatlar) - Operator uskunasiida Abonent uchun portni saqlagan holda, tanlangan va foydalaniladigan Asosiy xizmatlardan foydalanishni vaqtincha uzib qo‘yish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

5.1.2. Qo‘shimcha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun Asosiy xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lib, Shartnoma tuzilgan Asosiy xizmatlarga qo‘shimcha xizmat sifatida taqdim etiladi.

5.1.3. Qo‘shimcha xizmatlarning narxi amaldagi Narxnomaga muvofiq yechib olinadi.

5.1.4. Bir kalendar yili davomida Qo‘shimcha xizmatlarni faollashtirishning minimal muddati – bitta hisob-kitob davri, maksimal muddati – 2 ta hisob-kitob davrini tashkil etadi.

### **5.2. Qo‘shimcha xizmatlarni faollashtirish**

5.2.1. Qo‘shimcha xizmatlarni faqat keyingi hisob-kitob davrining birinchi sanasidan faollashtirish mumkin.

5.2.2. “Xizmatni zaxiralash” xizmatini faollashtirish imkoniyati faqat jismoniy shaxslar uchun taqdim etiladi va Abonent bir hisob-kitob davridan ortiq vaqtda moliyaviy blokirovkada bo‘lgan hollarda, avtomat tarzda amalga oshiriladi. “Xizmatni zaxiralash” xizmati uchun Abonent Shaxsiy hisobidan pul mablag‘larini hisob-kitob qilish va yechib olish tartibi “Jismoniy shaxslar uchun Internet va Uz-IX, TAS-IX tarmoqlariga kirishni taqdim etish” Asosiy xizmatlarida belgilangan.

5.2.3. Jismoniy shaxslar uchun “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmatini faollashtirish Abonentning arizasiga binoan, Operatorning sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida yoki Shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi, yuridik shaxslar esa xizmatni faqat ariza orqali faollashtiradilar.

### **5.3. Qo‘shimcha xizmatlarni deaktivatsiya qilish**

5.3.1. “Xizmatni zaxiralash” xizmatini deaktivatsiya qilish joriy tarif rejasi bo‘yicha har oylik Abonent to‘lovi va “Xizmatni rezervlash” qo‘shimcha xizmati bo‘yicha to‘lov amalga oshirilganda, avtomat ravishda amalga oshiriladi, bunda, tarif rejasi bo‘yicha Abonent to‘lovining hisob-kitobi xizmatni taqdim etish va tarifikatsiyalash qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.3.2. “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmatini deaktivatsiya qilish Abonent tomonidan ma’lum qilingan “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmatining amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, amalga oshiriladi, xizmat tegishli hisob-kitob davrining hisob-kitob sanasidan boshlab avtomat ravishda deaktivatsiya qilinadi va Abonentning shaxsiy hisob raqamidan amaldagi tarif rejasi bo‘yicha Abonent to‘lovi hamda “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmati uchun tegishli summa yechib olinadi.

5.3.3. Yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lgan Abonentlar “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmatini muddatdan oldin deaktivatsiya qilishlari va avvalgi yoki yangi tarif rejasi bo‘yicha xizmatlardan foydalanishni qaytadan tiklashlari mumkin. Bunday hollarda, yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lgan Abonentlar xizmatni deaktivatsiya qilish sanasi va kerakli tarif rejasini (joriy yoki yangi) ko‘rsatgan holda, Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisida xizmatni deaktivatsiya qilish to‘g‘risida yozma ariza rasmiylashtirishi kerak. Asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati ko‘rsatilgan sanadan va ko‘rsatilgan tarif rejasida avtomat ravishda faollashtiriladi. Shuningdek, jismoniy shaxslar “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” qo‘shimcha xizmatini Shaxsiy kabinetda deaktivatsiya qilishlari mumkin.

5.3.4. “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmatini muddatidan oldin deaktivatsiya qilish hollarida Asosiy xizmatlar bo‘yicha Abonent to‘lovini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- yuridik shaxs bo‘lgan Abonentlar uchun “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmati deaktivatsiya qilingan vaqtdan boshlab va kalendar oyining yakuniga qadar Abonent to‘lovi keng polosali ulanish xizmatlarini taqdim etish qoidalari va shartlariga ko‘ra, qayta hisoblab chiqiladi.

- jismoniy shaxs bo‘lgan Abonentlar uchun Abonent to‘lovi to‘liq hajmda hisoblanadi, bir hisob-kitob davri uchun to‘liq xizmatlar hajmi taqdim etiladi, bunda hisob-kitob sanasi “Xizmatni ixtiyoriy blokirovka qilish” xizmati deaktivatsiya qilingan kunga suriladi.

## **5.4. Boshqa shartlar**

5.4.1. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun: to‘liq bo‘lmagan bir oy davomida Qo‘shimcha xizmatlardan foydalangan davr uchun to‘lovlar summasi 1 oy davomida foydalanilgan xizmatlar sifatida hisob-kitob qilinadi.

5.4.2. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun: Qo‘shimcha xizmatlar uchun avval hisobdan chiqarilgan summa bekor qilinib, qaytarib berilmaydi va qayta hisob-kitob qilinmaydi.

5.4.3. Qo‘shimcha xizmatlar Asosiy xizmatlardan alohida taqdim etilmaydi.

5.4.4. Qo‘shimcha xizmatlarning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, Abonent tomonidan Asosiy xizmatlar uchun Abonent to‘lovi amalga oshirilmagan hollarda, Abonent bir hisob-kitob davridan ortiq bo‘lmagan muddatga “To‘lov kutilmoqda” maqomiga o‘tkaziladi. Keyingi hisob-kitob davrida Operator bir tomonlama tartibda Abonentga ulangan xizmatlarni uzib qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi va Operatorning uskunasi qaytarishi lozimligi to‘g‘risida Abonentni xabardor qiladi.